



UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA ELEKTRON AXBOROT-TA’LIM RESURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Purxanova T.J.

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 48-sonli ayrim fanlar
chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflari bor umumiy o‘rta ta’lim
maktabining informatika fani o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: axborot, veb-sayt, platforma, animatsiya, multimediya, interaktiv, dastur, virtual muhit, elektron resurs.

Ключевые слова: информация, сайт, платформа, анимация, мультимедиа, интерактив, программа, виртуальная среда, электронный ресурс.

Key words: information, website, platform, animation, multimedia, interactive, program, virtual environment, electronic resource.

Kirish. XXI asr - yuqori kompyuter texnologiyalari asri. Yangi axborot texnologiyalaridan maktablarda foydalanish bo‘yicha savollar tez-tez ko‘tarilmoqda. Ilg‘or o‘qituvchilarning o‘sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish istagi ta’limda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’limning yangi shakllarini hayotga tatbiq etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratib: “Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi” deb ta’kidlagan edi.

Adabiyotlar tahlili va metodoliya. Shuni aytib o‘tish joizki, bugungi kunda o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan holda darslarni tashkil etish respublika miqyosida ijobiy deb bo‘lmaydi. O‘quvchi-yoshlarning mustaqil bilim olish faoliyatida axborot texnologiyalari yetarli qo‘llanilmayapti desak bu ham to‘g‘ri bo‘ladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchining bilim olishida shunchalar muhimki, bugungi avlodlarimiz IT olamida, internet asrida ulg‘aymoqda va yashamoqda. Ularning dunyoqarashiga mos manbaalar:



Natijalar. Dasturiy tizim platformada video, audio, animatsiya, didaktik o‘yinlarni tez va qulay o‘rganishga yordam beradi. Animatsion mavzular talabalarni olayotgan bilimini oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

“Informatika” fanini o‘qitish elektron axborot-ta’lim resursida mavzular nazariy va amaliy yoritilgani, mavzuni mustahkamlash uchun qo‘l mehnati turlarining texnologiyasi, didaktik o‘yinlar bajariladi.(3-va 4-rasm)



3-rasm



4-rasm

“Informatika-5” elektron-ta’lim resursining vazifasi ta’lim olishda Internet va kompyuter texnikalari orqali va zamonaviy texnikalar orqali bilim olishdan iborat bo‘lib, undagi ma’ruzalar, rasm va audiolar foydalanuvchilarga texnologiya fani qo‘l mehnati turlarining texnologiyasi, didaktik o‘yinlar bajariladi. Didaktik o‘yin shaklidagi bu ta’lim-resursida savollar javoblari shu vaqtning o‘zida ko‘rish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘quvchining eslab qolish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Muhokama. Ushbu “Informatika” fanini o‘qitish elektron axborot-ta’lim resursi Oliy ta’lim institutlari pedagog ta’lim yo‘nalishlari talabalari, muhandislar va mutaxassislar, pedagoglar hamda maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. “Informatika-5” nomli elektron axborot-ta’lim resursi dasturining funksional imkoniyatlari quyidagicha:

- elektron axborot ta’lim resurs umumta’lim maktablarining Informatika o‘qituvchilari, pedagoglar, talabalarining kompyuter orqali tezda o‘rganish imkoniyatini beradi;
- Kompyuter texnikasi orqali informatika fani bo‘yicha qo‘l mehnati turlarini tezkor bilim olish, uni hohlagan vaqtda qayta takrorlash, amaliy ishlarni videolar orqali mustaqil o‘rganish va bilimlarini testlar orqali baholab ko‘rish imkoniyatini yaratadi;
- yaratilgan ushbu axborot-ta’lim resursi institut, oliy ta’lim texnika yo‘nalishi professor o‘qituvchilari Informatika fanini kompyuter orqali, internet tarmog‘i orqali tezda o‘rganish imkoniyatini beradi;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion texnologiyalari orqali bilim olish imkoniyatlarini oshiradi;
- Interfaol usulda mustaqil ravishda o‘z bilimlarini tekshirish va baholash imkoniyatiga ega, Informatika fanini mustaqil ravishda yoki masofaviy ta’lim orqali o‘rganishni ta’minlaydi.



Xulosa. Xulosa qilib aytganda yaratilgan ushbu axborot-ta'lim resursi rasmlar, audio, video, internet saytlari, ActionScript 3.0 dasturida yaratilgan tayyor fayllar, animatsiyalar bilan ishlash imkoniyatini beradi. Buning afzalligi shundaki u Interfaol usulda mustaqil ravishda o'z bilimlarini tekshirish va baholash imkoniyatiga ega, Informatika fanini mustaqil ravishda yoki masofaviy ta'lim orqali o'rganishni ta'minlaydi. Bu kabi axborot-ta'lim resurslar bilan dars jarayonlarini olib borish ijobiy samara berishini tajribalarimiz natijalaridan ko'rib kelmoqdamiz. Yosh avlodga ta'lim tarbiyani zamonaviy texnologiya yutuqlari bilan hamohanglikda bersakgina ularni fanlarga bo'lgan qiziqishini yanada ortishiga erishishimiz mumkin. Zero vatanimiz kelajagi biz tarbiyalab kelayotgan ilmga chanqoq yosh avlodimiz qo'lida. Yosh avlodga munosib zamonaviy bilimlar berish esa biz pedagoglar zimmasidadir.

Adabiyotlar:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'RQ-637-son, Toshkent 2020 yil.
2. D. T. Kamalatinova, D. M. Sayfurov. "Informatika va axborot texnologiyalari»: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik:-T.: Tasvir, 2020.-112 b
3. T. Madumarov, M. Kamoldinov "Innovation pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim tarbiya jarayonida qo'llash", T. "Talqin", 2012 yil.
4. Muslimov N., Umarov X., Turakulova A. va boshqalar "Kasb ta'limi o'qituvchisining axborot olish kompetentligini shakllantirish texnologiyasi", metodik qo'llanma, - T.: 2014 yil
5. Каххоров С.К., Расулова З.Д. (2020). Компьютерные технологии обучения как важный фактор для улучшения процесса преподавания. Современные инновации. 36:2, С. 44-46.
6. <http://www.pr.com/press-release/326724>
7. <http://www.millee.org/>
8. <http://www.innovateonline.info/index.php?view=article&id=173>
9. Andersen Bent. B., Kate van den Brink. Mul'timedia v obrazovani [Multimedia in Education]. Moscow, Drofa Publ., 2007. 221 p. (In Russian)
10. Nasirova Sh.N., Makhmudova M.A., Kholmurodova Z.N., Karimova N.A. Specific features of using the multimedia system in the educational process Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10.5958/2278-4853.2020. 00201.3, Impact Factor : SJIF 2020 = 6.882, r. 40-46

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'quvchilarga ta'lim berishda elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish masalalariga qaratilgan. Yoshlarning dunyoqarashiga mos ta'lim resurslarini zamonaviy ko'rinishdagi, interaktiv va kreativ tarzda axborot texnologiyalarida tayyorlash va uzatishning bugungi kundagi dolzarb masalalari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются вопросы использования электронных информационно-образовательных ресурсов при обучении учащихся в общеобразовательных школах. Обсуждаются актуальные на сегодняшний день вопросы подготовки и передачи образовательных ресурсов, соответствующих мировоззрению молодежи, современным, интерактивным и творческим способом в информационных технологиях.

SUMMARY

This article focuses on the issues of using electronic information-educational resources in teaching students in general secondary education schools. Today's current issues of preparing and transmitting educational resources suitable for the worldview of young people in a modern, interactive and creative way in information technologies are discussed.